**"TASDIQLAYMAN"**
**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori**

_______________ **A.T.Ubbiyev**

**2023-yil __2__-iyun**

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish**
**DASTURI**

| T/r | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlarni yangi tahrirda tasdiqlash | 1. Ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.<br>2. Loyihalarni manfaatdor tarkibiy bo'linmalar bilan kelishish.<br>3. Tasdiqlangan hujjatlarni ijroga qaratish va eskilarini kuchini yo'qotgan deb topish. | 2023-yil iyun | Yuridik bo'lim (Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas'ul) |
| 2. | Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlari bilan tuzilgan mehnat shaernomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish | 1. Mehnat shartnomasi loyihasini ishlab chiqish.<br>2. Amaldagi mehnat shartnomalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish | Doimiy | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, tizimdagi ta'lim muassasalari |
| 3. | Malaka talablarini ishlab chiqish, tasdiqlash, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish | Ichki idoraviy hujjatlar hujjatlarni tasdiqlash | 2023-yil iyun | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | Budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profllaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash | 1. Tizimdagi maktablarning rahbar kadrlari uchun seminar tashkil qilish.<br>2. Ularni qiynab kelayotgan muammolarga yechim berish | 2023-yil dekabr | Moliya-iqtisod boshqarmasi |
| 5. | Tizimdagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning bino va inshootlaridan foydalanish bo‘yicha ishlar monitoringini olib borish va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish | 1. Tizimdagi maktablarning rahbar kadrlari uchun seminar tashkil qilish.<br>2. Budjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, budjetga keltirilgan zararni qoplash bo‘yicha choralarni qabul qilish, budjet va smeta-shtat intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish. | 2023-yil dekabr | Buxgalteriya hisobi bo‘limi |
| 6. | Davlat xaridlari bilan bog‘liq kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy shartlarning majburiy kiritilishini ta’minlash. | 1. Asosiy shartlar loyihasini ishlab chiqish.<br>2. Barcha shartnomalarda mazkur shartlarni nazarda tutish. | Doimiy | Moddiy-texnik ta’minot bo‘limi, Yuridik bo‘lim |
| 7. | Tovar-moddiy boyliklarni adolatli taqsimlanishini ta’minlash, bunda xodimlarning ish hajmi va haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib ta’minlash hamda nazorat qiIish. | 1. So‘rov bildirilganda ehtiyoj mavjudligini aniqlash.<br>2. Berilgan tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish. | Doimiy | Moddiy-texnik ta’minot bo‘limi |
| 8. | Ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarning | 1. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda ochiq | Belgilangan muddatlarda | Axborot xizmati, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | belgilangan muddatlarda joylashtirilib borilishini ta'minlash | ma'lumotlarning joylashtirilishini monitoring qilish.<br>2. Ma'lumotlarni joylashtirish va taqdim qilish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarni ogohlantirish, vazifasini bajarmagan xodimlarni javobgarlikka tortish haqida taklif kiritish | | Tashkiliy nazorat va murojaatlar bilan ishlash bo'limi |
| 9. | Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hamda idoraviy hujjatlardan xabardorligini ta'minlash | 1. Qabul qilingan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida Agentlik rahbariyati huzurida o'tkaziladigan yig'ilishlarda tushuntirishlar berish.<br>2. Zaruriyat bo'lganda xodimlarning mas'uliyatini oshirish maqsadida shu kabi hujjatlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirish | Doimiy | Yuridik bo'lim (Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas'ul) |

**Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas'ul,**
**Yuridik bo'lim boshlig'i** **U.T.Muxammadiyev**